

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU
ILMIY
XABARLAR

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024 1-SON
ILOVA TOPLAM: GEOGRAFIYA

НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.A.Xamidov

Geoekologik muammolar va ularning yechimiga oid kontsepsiyalar (Farg'ona vodiysi misolida)263

Z.X.Madaminov, M.R.Mahammadova

Iste'molni tadqiq etish va oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash salohiyatini baholash metodlari268

M.N.Xabibullayeva

Andijon viloyati ma'muriy tumanlari va markazlarining toponimik taxlili.....272

K.K.Uzakbaev

Qoraqalpog'iston Respublikasi aholisining joylashuv tizimi xizmat ko'rsatish sohalari hududiy rivojlanishining omili sifatida.....280

F.N.Alimjanov

Global iqlim o'zgarishi sharoitida talabalarni ekologik faolligini oshirishni pedagogik omillari...288

S.M.O'ktamova

Shohimardonsoy daryo havzasi antropogen landshaftlaridagi geoekologik holat va oqibatlarini baholash masalalari292

Sh.Sh.No'monov, M.A.Badalova

Hududlarni barqaror rivojlantirishda yerdan foydalanishning o'rni.....297

J.J.Mamatisakov

Bo'lajak geografiya fani o'qituvchilarini o'quvchilarda geologik ko'nikmalarni shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari303

B.S.Tojiddinov

Yer resurslaridan foydalanish samaradorligini baholash usullari306

N.A.Fattoxov, S.T.Sobirova

Antropogen omilning shaharlar geoekologik vaziyatiga ta'siri (Farg'ona-Marg'ilon aglomeratsiyasi misolida)312

ISTE'MOLNI TADQIQ ETISH VA OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI BILAN TA'MINLASH SALOHİYATINI BAHOLASH METODLARI**ИССЛЕДОВАНИЕ ПОТРЕБЛЕНИЯ И МЕТОДЫ ОЦЕНИВАНИЯ СНАБЖЕНИЯ ПРОДОВОЛЬСТВЕННЫМИ ПРОДУКТАМИ****CONSUMPTION RESEARCH AND FOOD SUPPLY METHODS****Madaminov Zafarjon Xudoyberdiyevich²**¹Farg'ona davlat universiteti, geografiya kafedrası mudiri, g.f.f.d (PhD)**Mahammadova Mahbubaxon Rahmiddin qizi²**²Farg'ona davlat universiteti, geografiya yo'nalishi talabasi**Annotatsiya**

Ushbu maqolada iste'molni tadqiq etish metodlari, jumladan, statistik, kartografik, anketa so'rov, og'zaki so'rov metodlari tahlil qilingan. Shuningdek, oziq-ovqat bilan ta'minlanganligini baholash mezonı va ko'rsatkich qiymatlari ishlab chiqilgan.

Аннотация

В статье анализируются методы исследования потребления, в том числе статистические, картографические, анкетные и устные методы опроса. В тоже время оценивание обеспечением продовольственными ресурсами и разработаны критерии показателей.

Abstract

This article analyzes the methods of consumer research, including statistical, cartographic, questionnaire, and oral survey methods. Also, criteria and indicator values for assessing food security have been developed.

Kalit so'zlar: aholi iste'moli, turmush tarzi, turmush darajasi, oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash salohiyati, oziq-ovqat bilan ta'minlanganligini baholash mezonı, oziq-ovqat mustaqilligi darajasi

Ключевые слова: потребление населения, образ жизни, уровень жизни, продовольственный потенциал, критерии оценивания снабжения продовольственными продуктами, уровень продовольственной независимости

Key words: population consumption, lifestyle, standard of living, food supply potential, criteria for assessing food security, level of food independence.

KIRISH

Jahon aholisining tez sur'atlar bilan ko'payishi jarayonida ularning iste'mol tovarlariga, shu jumladan oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlari yildan yilga ortib bormoqda. Bu esa kam rivojlangan mamlakatlarda oziq-ovqat mahsulotlari yetishmasligi, to'yib ovqat emaslik va ocharchilik muammosini keltirib chiqarmoqda. Shuning uchun ham BMTning 2030-yilgacha bo'lgan Barqaror rivojlanish dasturining ikkinchi maqsadida "Ocharchilikka barham berish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, qishloq xo'jaligini barqaror rivojlanishiga ko'mak berish" bo'yicha vazifalar belgilangan¹⁹. Mazkur vazifalar, ayniqsa oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va uni hududiy tarkibini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlarni taqozo qiladi.

Dunyo mamlakatlarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va bu mahsulotlarni aholiga yetkazib berish, aholining iste'mol darajasini yuksaltirish, oziq-ovqat ishlab chiqaruvchi korxonalarini iqtisodiy va ekologik jihatdan oqilona joylashtirish, aholi iste'moli bilan bog'liq xo'jalik tarmoqlarini hududiy tashkil etishni rejalashtirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Bu borada oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va iste'mol qilishning hududiy tarkibini takomillashtirishga ustuvor ahamiyat berilmoqda.

Respublikada oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sohasiga mintaqalarni yuksaltirish, aholi daromadlari va turmush darajasini oshirish, aholini iste'mol ko'rsatkichlarining sifat va hajm jihatidan oshiruvchi tarmoqlardan biri sifatida qaralib, uni rivojlantirish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, tuman va shaharning muammo hamda imkoniyatlarini chuqur o'rganagan holda hududlar kesimida taraqqiyot dasturlari ishlab

¹⁹ <https://www.un.org/sustainabledevelopment/ru/hunger/>

chiqish²⁰ yuzasidan muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga ta'sir etuvchi tabiiy, iqtisodiy-ijtimoiy, demografik omillarni tahlil qilish, baholash usullarini takomillashtirish, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning hududiy tarkibini tahlil qilish, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning hozirgi holati va muammolarini aniqlash, tabiiy, iqtisodiy-ijtimoiy salohiyatidan foydalanib oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni hududiy tarkibini takomillashtirish, oziq-ovqat mahsulotlari iste'molini hududiy farqlarini aniqlash, tumanlar tipologiyasini o'tkazish, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va iste'molning mutanosibligini ta'minlovchi hududiy tarkibini muvofiqlashtiruvchi takliflar ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Iste'mol geografiyasini o'rganish va uni baholash zarur metodlardan foydalanishni taqozo etadi. Aholi iste'molini geografik o'rganishning har xil baholash metodlari mavjud. Bu metodlar qatorida statistik, kartografik, taqqoslash metodlarni kiritish mumkin. Ayniqsa iste'mol jarayonini statistik methodsiz tasavvur qilish qiyin. Aholi iste'molining turli ko'rsatkichlarini statistik guruhlash eng kerakli metodlardan biri hisoblanadi. Ma'lumotlar guruhlash bilan cheklanmaydi va bu metod yordamida statistik materiallar qayta ishlanadi. Aynan shu metodni qo'llash aholining demografik tarkibini ham xarakterlaydi, aholi daromadlari va iste'mol maqsadida rayonlashtiriladi.

Statistik metodni kartografik metod bilan qo'shgan holda foydalanilsa, iste'mol jarayonining o'rganish jarayonini mohiyati kengayadi. Tahlil darajasi ham ortadi. Aslida kartografik metod geografik tadqiqotlarda, shu jumladan iste'mol geografiyasida ham asosiy rol o'ynaydi. Kartosxema va kartodiagrammalar barcha geografik ishlarda mintaqaning organik qismini tasvirlashda, mintaqalararo taqqoslashda va qonuniyatlarni aniqlashda muhim rol o'ynaydi. Bu metodlar yordamida biror bir mintaqaning boshqa bir mintaqadan alohidalik jihatlarini ajratib olish mumkin. Iste'mol geografiyasini o'rganishda barcha jarayonlar unga xizmat qiladi. Bu metod aholi iste'molining respublika, mintaq va oilaning moddiy byudjetini aniqlash imkonini beradi. Aholining turli guruhlarning moddiy boyliklar va foyda tarkibini to'liq ko'rinishini namoyon etadi.

Iste'molni geografik jihatlarini o'rganish uchun tabiiy sharoitda imkoniyatlar keng bo'lib, anketa so'rov va og'zaki so'rov metodlaridan ham foydalanish mumkin. Bunda aholining turli qatlamlari ijtimoiy guruhlar, yosh-jins, milliy tarkibi va shu kabi xususiyatlari inobatga olinishi lozim. Bu metodlar har bir mintaqada o'tkazilib, bir-biri bilan o'zaro taqqoslanadi. Ushbu metod juda yaxshi samara beradi. Shuningdek, bu metod yordamida shahar va qishloq aholisining daromadlarini ham taqqoslash mumkin. Chunki qishloq aholisining shaxsiy yordamchi xo'jalikdan foydalanish ko'rsatkichlarini aniqlash mumkin. Bu jarayonda qishloq va shahar aholisining sotib olish geografiyasini o'rganish mumkin.

Aholini oziq-ovqat bilan ta'minlash masalalari qadimdan markaziy o'rinda tursa-da, uni ilmiy asoslashga urinishlar XVII-XVII asrlarga taqalib, ilk bor T.Maltus aholini tabiiy o'sishi va oziq-ovqat mahsulotlari tayyorlash davriy proporsiya ekanligini yozib ketgan edi. Maltus fikricha ko'ra aholi geometrik, oziq-ovqat tayyorlash esa arifmetik progressiya bo'yicha o'sib boradi, Ya'ni ishlab chiqarish tarmoqlari aholining tabiiy ko'payishidan ortda qoladi. 1826-yilda yashagan nemis olimi I.Tyunen «Aholi zich yashaydigan hududda qishloq xo'jaligini joylashtirish» nomli asarida hududda joylashgan shahar aholisini, eng avvalo, qishloq xo'jaligi mahsulotlari, Ya'ni oziq-ovqat bilan ta'minlash masalalarini ko'rib chiqdi.

Mayer V.F va Matyuxa I.Ya fikrlariga kora aholining iste'mol ko'rsatkichlari aholi turmush darajasini belgilovchi asosiy komponentlardan biridir. Aholi turmush darajasi juda keng qamrovga ega bo'lib, ko'plab bir-biriga yaqin tushunchalarni qamrab oladi. Masalan "xalq farovonligi", "yashash darajasi", " turmush tarzi" va xokazolar. Ba'zi bir mualliflar bu tushunchalarni bir xil ma'noga ega deb tushuntirishlar, boshqalari esa ularni bir-biridan etarlicha farqlarga ega deb biladilar.

R.Ya.Kabo esa turmush tarzi tushunchasini batafsil tushuntirishga xarakat qilib "turmush tarzi insonlarning yashash vositalarini izlash va ulardan foydalanish, shuningdek rang-barang sotsial-iqtisodiy, madaniy- maishiy shakllarni o'zida birlashtirishini" aytib o'tgan.

²⁰O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni, 28.01.2022 y.

TADQIQOTNING MAQSAD VA VAZIFALARI

Aholi moddiy va ma'naviy farovonlik darajasi uning iste'mol buyumlariga, ma'naviy boyliklarga bo'lgan talab darajasini qay holatda qondirilishiga bevosita bog'liq. Fan-texnika rivojlangani sari va boshqa omillar ta'sirida aholining iste'mol buyumlari, ma'naviy boyliklarga bo'lgan talabi ortib boradi.

Olib borilgan tadqiqot ishning asosiy maqsadi iste'molni tadqiq etish va oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash salohiyatini baholash metodlarini tahlil qilish va kerakli xulosalar olishdan iborat. Qo'yilgan maqsadni amalga oshirish uchun dastlab quyidagi vazifalar belgilab olindi.

- iste'molni tadqiq etish metodlari yordamida aholi iste'molining hududiy jihatlarini o'rganishdagi ahamiyatini tahlil etish;
- Statistik va kartografik metodlar yordamida iste'molning hududiy jihatlarini o'rganish;
- Iste'molning uzoq rivojlanish tendensiyalari va qonuniyatlarini ishlab chiqish;
- Iste'molni geografik jihatlarini o'rganishda anketa so'rov va og'zaki so'rov metodlarini mohiyatini yoritib berish;
- Turmush tarzi, turmush darajasi tushunchalari va ularning farqini tushuntirib berish.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Hududlarning oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash salohiyatini baholashda Ye.N.Antamoshkina tomonidan ishlab chiqilgan hamda takomillashtirilgan balans metodidan foydalanildi. Bu metod quyidagi tartibda amalga oshiriladi.

1.Hududning oziq-ovqat xavfsizligini baholash mezonini tanlash (hudud oziq-ovqat mustaqilligi darajasi iste'mol qilinuvchi mahsulotlar bilan aholining fiziologik talabini qondirilish holati)

2. Aholining oziq-ovqatlarni xarid qilishga iqtisodiy jihatdan imkoniyatning mavjudligi.

3. Har bir mezon bo'yicha baholash ko'rsatkichlarni aniqlash (oziq-ovqat bilan o'z-o'zini ta'minlanganlik koeffitsiyenti va boshqalar)

Oziq-ovqat bilan o'z-o'zini ta'minlanganlik koeffitsiyenti quyidagi formula asosida aniqlanadi.

$$K_{oz} = Q / (n * Q_p) \quad (1)$$

Q-ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotlari hajmi, n-aholisi soni, Qp-iste'molning ratsional miqdori.

Taklif qilingan metod bo'yicha viloyat ma'muriy hududiy birliklari bo'yicha o'z-o'zini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash bo'yicha baholash amalga oshiriladi (1-jadval).

Baholash ko'rsatkichlarining har biri uchun parametrlarni o'rnatilgan (me'yordan yuqori, optimal, ruxsat etilgan, past). Bu parametrlarni u yoki bu qiymat qabul qilinishiga bog'liq holda oziq-ovqat mahsulotlari bilan o'z-o'zini ta'minlashni baholash ko'rsatkichlarining har biri bo'yicha past ko'rsatkich uchun 0 ball, ruxsat etilgan ko'rsatkich uchun 1 ball, optimal ko'rsatkich uchun 2 ball, me'yordan yuqori ko'rsatkich uchun 3 ball qo'yiladi. So'ng ko'rsatkichlar umumlashtiriladi va umumiy qiymat chiqariladi.

1-jadval

Oziq-ovqat bilan ta'minlanganligini baholash mezonini va ko'rsatkich qiymatlari

| Mezon | Ko'rsatkich qiymatlari |
|---|--|
| Hududning oziq-ovqat mustaqilligi darajasi (o'zini o'zi ta'minlash) | $Ko'z \leq 0,5$ past; $0,5 \leq Ko'z \leq 0,9$ —ruxsat etilgan; $0,9 \leq Ko'z \leq 1,1$ — optimal $Ko'z \geq 1,1$ me'yordan yuqori |

Yuqorida Ye.N.Antamoshkina o'z tadqiqotlarida taklif etgan uslubiyat asosida aniq mintaqa uchun baholar mezonini tanlashda mintaqada qishloq xo'jaligi yaxshi rivojlanganligi e'tiborga olingan.

XULOSA

Ishlab chiqarishsiz iste'mol bo'lmaydi, o'z navbatida esa iste'molsiz ishlab chiqarish ham mavjud emas. Shunday ekan ishlab chiqaruvchi bu iste'molchi hamdir. Iste'molchi esa ishlab chiqaruvchidir. Iste'molsiz ishlab chiqarishning zarurati ham yo'q. Bir tomondan ishlab chiqarish

aholini iste'mol mollari bilan ta'minlaydi. Ikkinchi tomondan iste'molchi ishlab chiqarishni ishchi kuchi bilan ta'minlaydi.

Iste'molni tadqiq etish va oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash salohiyatini baholashning tadqiqot natijalari asosida tavsiya va takliflar ishlab chiqildi. Jumladan, iste'molni tadqiq etish metodlari yordamida aholi iste'molining hududiy jihatlarini o'rganishdagi ahamiyati yoritib berildi, metodlar yordamida iste'molning hududiy jihatlarini o'rganildi, iste'molning uzoq rivojlanish tendensiyalari va qonuniyatlarini ishlab chiqildi, iste'molni geografik jihatlarini o'rganishda anketa so'rov va og'zaki so'rov metodlarini mohiyatini yoritib berildi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni, 28.01.2022 y
2. Abirqulov A.Q. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sanoati rivojlanishining mintaqaviy jihatlarini. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. – T., 2011. – B. 3-4.
3. Кабо Р.Я. География населения. В сб.: "Вопросы география", 1947-25 с
4. Колосовский Н.Н. Теория экономического районирования.- М.: Мысль, 1969. -336 с.
5. Мадаминов З. Х., Абдуганиев О. И. ИЗУЧЕНИЕ ПОТРЕБИТЕЛЬСКОЙ ГЕОГРАФИИ //Экономика и социум. – 2021. – №. 11-2 (90). – С. 959-962.
6. Мадаминов З. Х. УЛУЧШЕНИЕ РЕГИОНАЛЬНЫХ АСПЕКТОВ БЕЗОПАСНОСТИ ПИЩЕВЫХ ПРОДУКТОВ И ПРОИЗВОДСТВА ПРОДУКТОВ ПИТАНИЯ //Экономика и социум. – 2023. – №. 4-2 (107). – С. 619-623.
7. Kh M. Z. PRODUCTION AND CONSUMPTION OF GOODS OF PEOPLE'S CONSUMPTION AS AN OBJECT OF GEOGRAPHICAL RESEARCHES //Экономика и социум. – 2020. – №. 1 (68). – С. 61-63.
8. Мадаминов З. Х. ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПОТРЕБЛЕНИЯ НАСЕЛЕНИИ //Экономика и социум. – 2019. – №. 10 (65). – С. 485-488.
9. Мадаминов З. Х., Салиджанов С. О., Сабиров Т. С. ТЕРРИТОРИАЛЬНЫЕ УСТРОЙСТВА ДЛЯ ПРОИЗВОДСТВА ТОВАРОВ НАРОДНОГО ПОТРЕБЛЕНИЯ В СИСТЕМЕ ПРИРОДА-НАСЕЛЕНИЕ-ХОЗЯЙСТВО (НА ПРИМЕРЕ КОМПЛЕКСНОЙ АГРОПРОМЫШЛЕННОСТИ) //Экономика и социум. – 2019. – №. 10 (65). – С. 481-484.
10. Матюха И.Я. Статистика жизненного уровня. М.:Статистика, 1973- 232-с
11. Soliyev A.S. va boshq. Mintaqaviy iqtisodiyot. – T.: Universitet, 2003. – 304 b.
12. [https://www.un.org/sustainabledevelopment/ru/hunger/ sayti](https://www.un.org/sustainabledevelopment/ru/hunger/)